



MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

1-bo'lim	Modda/aralashma va kompaniya/korxonasi nomi
----------	---

1.1 Mahsulot identifikatori

Mahsulot – DF turidagi GOST bo'yicha 32614:2012 (EN 520:2009) gipsli qurilish plitasi

Qisqacha: DFH2 turidagi GQP

1.2. Mahsulotning belgilangan maqsadli vazifasi va foydalanishda tavsiya qilingan cheklolar

Devorga qoplashda, pardevor qurishda, shiftga qoplashda va talab kuchaytirilgan joylardagi boshqa konstruksiyalarda ishlatilib, manzarali qoplama beriladigan yoki gipsli shpaklyovka surtiladigan yo suvaladigan ma'lum zichlikdagi va ochiq alanga ta'siriga gips o'zagining bardoshliligi oshirilgan namlikka chidamli gipsli plitalar.

1.3 Xavfsizlik ma'lumotlarida yetkazib beruvchi haqida batafsil axborot

Ishlab chiqaruvchi: "KNAUF GIPS BUXORO" MCHJ XK
Ishlab chiqaruvchi manzili: 200705, Qorovulbozor shossesi, Kogon tumani, Buxoro viloyati, O'zbekiston
Ish telefoni/faks/mobil telefon: +99865 522 63 29 (63301)/ +99865 527 70 01 (63499)/ +99891 440 77 47
El.pochta: Shakhnoz.Gulamova@knauf.com
Veb-sahifa: www.knauf.uz
Ushbu xavfsizlik pasporti uchun mas'ul shaxs: ilya.mazor@knauf.com

1.4 Shoshilinch aloqa uchun telefon:

Tez tibbiy yordam: 103
Davlat yong'in-qutqaruv xizmati: 102

2-bo'lim	Xavf-xatar identifikatsiyasi
----------	------------------------------

2.1. Mahsulotlar tasnifi

1272/2008-sonli (Yel) me'yoriy-huquqiy hujjatga muvofiq

Mahsulotlar tasnifi: Tasniflanmagan.
Moddiy-kimyoviy xavf-xatar: Mahsulot xavf tug'dirmaydi
Sog'liq uchun xavf: Mahsulot inson sog'lig'i uchun xavf tug'dirmaydi:
Atrof-muhitga zararli ta'sir xavfi: Mahsulot atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmaydi

2.2. Tamg'alash elementlari

1272/2008-son (Yel) me'yoriy-huquqiy hujjatga muvofiq

Xavf piktogrammasi: Shart emas
Signal so'z: Shart emas
Xatar frazasi: Shart emas
Xavf to'g'risida qo'shimcha axborot: Shart emas

MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

Ogohlantiruvchi iboralar	
Umumiy ma'lumotlar:	Shart emas
Oldini olish:	Shart emas
Reaksiya:	Shart emas
Saqlash:	Shart emas
Utilizatsiyalash:	Shart emas
Moddalarning tasniflashga yordamlashuvchi o'xshashligi:	Qo'llab bo'lmaydi
Tamg'alashning qo'shimcha elementlari:	Shart emas
Mahkamlanishi zarur bo'lgan bolalardan himoyalangan qadoq: Qadoqda tegish bo'yicha ogohlantirish bo'lishi lozim:	Shart emas

2.3. Boshqa ehtimoliy xatarlar

Barqarorlik, bioakkumulyativlik va zaharlilik (PBT) yoki yuqori barqarorlik va yuqori bioakkumulyativlik (vPvB) mezonlari:	Bu mahsulot tarkibida PBT yoki vPvB sifatida baholanadigan biror-bir modda mavjud emas va PBT yoki 1907/2006-son Reglament XIII Ilovasiga (Yel) ko'ra vPvB mezonlariga mos kelmaydi.
Tasniflanmaydigan boshqa xavf-xatarlar:	Sog'liq uchun oqibatlar va alomatlari, shuningdek, atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi ma'lumot 11 va 12-bo'limlarda.

3-bo'lim	Tarkibi/tarkibiy qismlari haqida ma'lumot
----------	---

3.2. Aralashmalar

Kimyoviy tavsifi	Gipsli qurilish plitasi karton qoplamali gips o'zakdan tashkil topgan. Gips o'zak qo'shimcha modda va maydalangan shishakalavadan iborat.
Ingrediyentlar deklaratsiyasi	1272/2008-son Reglamentga (Yel) muvofiq:

Mahsulot tarkibida Yel Reglamenti chegarasidan chiquvchi xavfli moddalar yo'q.

Kimyoviy nomi	Yel raqami	CAS raqami	Kons., %	Tasnif
Kalsiy sulfat; CaSO ₄	231-900-3	7778-18-9	> 60	-[2]

YI "Kimyoviy moddalarni davlat qaydidan, ekspertizadan o'tkazish va litsenziyalash tartibi" texnik reglamenti qayd raqami: 01-2119444918-26-0XXX

Ish joyidagi ta'sir chegarasi, agar bo'lsa, 8-bo'limda berilgan:

Ishlab chiqaruvchisi ma'lum bo'lgan qo'shimcha ingrediyentlari mavjud emas va qabul qilsa bo'ladigan konsentratsiyalarda sog'liq yoki atrof-muhit uchun xavfli deb tasniflanadi, PBT, vPvB yoki shunga o'xshash tashvish keltiruvchi modda hisoblanadi yoxud ish joyidagi chegarasi belgilangan va binobarin bu bo'limda hisobot talab qilinadi.

[2] Modda ish joyidagi ta'sir chegarasi bilan.



MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

4-bo'lim	Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha choralar
-----------------	---

4.1. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha choralar bayoni

Umumiy ma'lumot:

Teri bilan mahsulot changi orasida kontakt hosil qiluvchi yoki hosil qilib bo'lgan barcha ifloslangan kiyimlarni va poyabzalni darhol yechib tashlang.

Quyidagi holatlar yuzaga kelganda shoshilinch tibbiy yordam talab qilinadi:

- hushdan ketish
- nafas olish to'xtab qolishi yoki to'satdan nafas olishda muammo paydo bo'lishi,
- jiddiy jarohatlar yoki hayotga xavf soluvchi kuchli qon ketish,
- yurak xuruji belgilari (ko'krakda to'satdan og'riq turishi),
- insult belgilari (bir tomonda to'satdan kuchsizlik sezilishi),
- hayot uchun xavfli boshqa vaziyatlar.

Birinchi yordam ko'rsatilgandan keyin jabrlanuvchining holatidan boxabar bo'lib turing. Ta'sirlashuvdan vaqt o'tgandan keyin asorat yuzaga kelish ehtimoli past. Barcha gumonli holatlarda yoki belgilari saqlanib qolganda tibbiy yordamga murojaat qiling. Agan odam hushini yo'qotsa, o'zini tiklashi uchun joylashtirib qo'ying va zudlik bilan tibbiy yordam chaqiring. Qayta foydalanishdan oldin ifloslangan kiyimni va poyabzalni tozalang

Nafas olish:
Teriga tegishi:
Ko'zga tegishi:

Qo'llab bo'lmaydi
Qo'llab bo'lmaydi
Gipsli plitaga ishlov berishda yuzaga keluvchi changda qolganingizda ko'zingizni toza oqar suv bilan yaxshilab yuving.
Qo'llab bo'lmaydi - ichga yutish ehtimoli juda kam.

Ichga yutish:

4.2. Ham o'tkir, ham kechikuvchi eng muhim belgilari va ta'sirlari

Ko'zga tegishi:
Teriga tegishi:
Nafas olish:
Ichga yutish:

Chang ko'zni yengil achishtirishi mumkin.
Teriga qattiq ta'sir ko'rsatmaydi.
Nafas olishga qattiq ta'sir ko'rsatmaydi.
Qo'llab bo'lmaydi - ichga yutish ehtimoli past.

4.3. Tez tibbiy yordam va maxsus davolash zaruriyati bo'yicha ko'rsatmalar

Shifokor uchun eslatma Maxsus choralar ko'rish talab qilinmaydi



MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

5-bo'lim **Yong'in xavfsizligi choralari**

5.1. O't o'chirish vositalari

Yaroqli vositalar
o't o'chirish:

Mahsulot yonuvchan emas.

O't o'chirish vositalarini vaziyatdan va atrof-muhit materiallaridan kelib chiqib qo'llang.

Yaroqsiz o't o'chirish vositalari:

Ushbu mahsulotga aloqador emas. Atrof-muhitga mos bo'lmagan o't o'chirish vositalarini ishlatmang.

5.2. Moddalar yoki aralashmalardan hosil bo'ladigan alohida xavf-xatarlar:

Xavfli mahsulotlar Yong'in yuzaga kelganda oz miqdorda is gazi va karbonat angidrit gazi ajralib chiqishi mumkin.

5.3. O't o'chiruvchilarga tavsiyalar

Maxsus o't o'chirish usullari:
O't o'chiruvchilar uchun himoya jihozlari.

Ushbu mahsulotga aloqador emas.

Ushbu mahsulotga aloqador emas. Vaziyatga va atrof-muhit materiallariga qarab himoya vositalaridan foydalaning.

Boshqa ma'lumotlar:

Suv tekkanda mahsulot o'z sifatini yo'qotishi mumkin.

6-bo'lim **Halokat chiqindilarini bartaraf qilish bo'yicha choralar**

6.1 Shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora tadbirlar, himoya vositalari va halokat holatida harakatlar tartibi

Halokat brigadasida bo'lmaganlar uchun:

Tegishli bilimlarsiz yoki shaxsan xavf tug'diruvchi hech qanday xatti-harakat qilmang.

Halokat brigadasi uchun:

Chang yuzaga keltirmang. Chang filtrlri niqob taqish tavsiya qilinadi.

6.2 Atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar

Atrof-muhitni ifloslantirmaslik uchun sochilib yotgan mahsulotlarni yoki siniq qismlarni yig'ishtiring.

6.3 Tarqalishning oldini olish hamda tozalash materiallari va usullari

Quruq mexanik usulda yig'ishtirib olinadi va iloji bo'lsa, vazifasiga ko'ra ishlatiladi yoki 13-bo'limga muvofiq utilitatsiya qilinadi. Changishi va chang tarqalishiga yo'l qo'ymang.

6.4 Boshqa bo'limlarga havolalar

Eslatma: favqulodda holatlarda bog'lanib ma'lumot olish uchun 1-bo'limga qarang, shaxsiy himoya vositalari va chiqindilarni utilitatsiya qilish - mos ravishda 8 va 13-bo'limlarda.

MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006–son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830–son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

7-bo'lim Foydalanish va saqlash

7.1. Xavfsiz munosabatda bo'lish choralari

Yo'riqnomaga ko'ra foydalanishda hech qanday maxsus choralar talab qilinmaydi. O'rnatish va/yoki ishlov berish jarayonida chang yuzaga kelishiga yo'l qo'ymang. Changda nafas olmang.

7.2 Har qanaqa nomuvofiqlikda xavfsiz saqlash uchun sharoit

Plitalar usti yopiq quruq binolarda turi va o'lchamiga ko'ra ajratib saqlanishi kerak. Yon'gin va portlashdan himoya: Maxsus choralar talab qilinmaydi.

7.3. Yakuniy maxsus qo'llanish sohalari

Gipsli plitalar devorga qoplashda, pardevor qurishda, shiftga qoplashda va manzarali qoplama beriladigan yoki gipsli shpaklyovka surtiladigan yo suvaladigan boshqa konstruksiyalarda qo'llanadi.

8-bo'lim Ta'sir nazorati / shaxsiy himoya vositalari

8.1. Nazorat parametrlari

Substansiya

Professional ta'sirning chegaraviy qiymati	Modda	TRGS 900 MAK, mg/m ³	GOST 12.1.005, mg/m ³
	Kalsiy sulfat *	6 a	-
	Karton *	-	2 (qog'ozdan o'simlik yoki hayvon changi)

a - nafas bilan yutiladigan zarralar fraksiyasi
* - ish joyida gipskartonga mexanik ishlov berilishi/kesilishi natijasida, ayniqsa, yuqori tezlikli asboblarda ishlatganda havoga chang zarralari ko'tarilishi ehtimoli bor.

8.2. Nazorat ta'sir vositalari

Quyidagi texnik nazorat choralari ko'riladi: Texnik nazorat uchun yetarli yaxshi veltilyatsiyani ta'minlang: Ingrediyentlar konsentratsiyasini mumkin bo'lgan chegaraviy qiymatlardan pastroq ushlab turish uchun.

Shaxsiy himoya vositalari:

Nafas olish a'zolari himoyasi: Changning yuqori konsentratsiyasida FFP1/FFP2/FFP3 chang filtrlri mos nafas olish niqobidan foydalaning.

Teri himoyasi: Normal sharoitlarda foydalanganda talab qilinmaydi.

Qo'l himoyasi: EN 388ga ko'ra himoya qo'lqoplari, masalan, charm qo'lqopdan foydalanish tavsiya qilinadi

Tana himoyasi: Elastik manjetli va zich yopishgan yoqali himoyaviy ish kiyimini kiying.

Ko'z/yuz himoyasi: Agar chang ko'tarilsa, himoyaviy ko'zoynakni taqing

Gigiyenik choralalar: Umumiy xavfsizlik va gigiyena choralariga rioya qiling. Ishda tanaffuslardan oldin va ish kuni so'ngida qo'lingizni yuving.

Atrof-muhitga ta'sir nazorat choralari: Atrof-muhitni mahsulot kesiklari bilan ifloslantirmang. 6 va 12-bo'limlarga qarang.

MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006–son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830–son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

9-bo'lim Tabiiy va kimyoviy xususiyatlari

9.1 Asosiy tabiiy va kimyoviy xususiyatlari bo'yicha ma'lumot	
Ko'rinishi	
- Tabiiy holati:	Plita
Rangi	
- Gips:	Oq, oq-sarg'ish, krem tusli
- Karton:	Yashil/kulrang-yashil
Hidi:	Hidsiz.
Hid sezish boshlanishi:	Ma'lumot yo'q. pH
- Quruq mahsulot:	Qo'llab bo'lmaydi.
- Suvdagi suspenziya:	6 - 9
Erish harorati/muzlash harorati:	Qo'llab bo'lmaydi.
Qaynash boshlanish nuqtasi va qaynash intervali:	
Alangananish harorati:	Qo'llab bo'lmaydi.
Bug' hosil qilish intensivligi:	Qo'llab bo'lmaydi.
Alangananuvchanlik (qattiq, gaz hosil qilgan Alangananmaydigan. holat):	Alangananmaydi.
Alangananuvchanlik yoki portlovchanlikning yuqori/quyi chegarasi:	
Bug' shakllanish bosimi Bug' zichligi:	Qo'llab bo'lmaydi.
O'rtacha zichlik:	0,82 - 0,85 g/cm ³
Eruvchanlik:	Suvda: ~ 2 g/l (20 °C; CaSO ₄ • 2H ₂ O)
Tarqalish koeffitsiyenti: H-oktanol/suv:	Qo'llab bo'lmaydi.
O'zi alangananish harorati:	Qo'llab bo'lmaydi.
Parchalanish harorati (gips uchun):	CaSO ₄ va H ₂ O uchun: minimal ~ 140°C CaO va SO ₃ uchun: minimal ~ 1000°C
Qovushoqlik:	Qo'llab bo'lmaydi.
Portlash xususiyatlari:	Qo'llab bo'lmaydi.
Oksidlanish xususiyatlari:	Qo'llab bo'lmaydi.

9.2 boshqa ma'lumotlar

Ma'lumot mavjud emas

10-bo'lim Barqarorlik va kimyoviy faollik

10.1. Kimyoviy faollik

Normal sharoitda saqlaganda va ishlatilganda reaksiya kutilmaydi.

10.2. Kimyoviy faollik

Normal sharoitda saqlaganda va ishlatilganda barqarordir.

10.3. Xavfli reaksiyalar ehtimoli

Normal sharoitda saqlaganda va ishlatilganda xavfli reaksiya kutilmaydi.

10.4. Quyidagi sharoitlarda saqlash mumkin emas

Nam sharoitga yo'l qo'ymang.

10.5. Kelishmaydigan materiallar.

Noma'lum.

10.6. Buziluvchi xavfli mahsulotlar

Atruf-muhit sharoitida yo'q. Yong'in sodir bo'lganda oz miqdorda is gazi va karbonat angidrit ajralib chiqishi mumkin.

MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

11-bo'lim Toksikologik ma'lumot

Gipsli qurilish plitasi mahsulot hisoblanadi va xavfli deb tasniflanmaydi.	
O'tkir zaharlilik:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Shikastlash/terini achishtirish:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Jiddiy shikastlash/ko'zni achishtirish:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Respiratorli yoki teri orqali sensibilizatsiya:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Homila hujayralarining mutagenligi:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Kanserogenlik:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Reproduktiv zaharlilik:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Mo'ljalidagi a'zolar uchun xos zaharlilik (STOT):	
Bir marta ta'siri (STOT SE):	Ushbu tovarga tegishli emas.
Qayta ta'siri (STOT RE):	Ushbu tovarga tegishli emas.
Aspiratsion holatlarning rivojlanish xavfi:	Ushbu tovarga tegishli emas.
Ehtimoliy yuqish yo'llari haqida ma'lumot:	
Inson organizmiga amalda faqat gipsli qurilish plitalariga ishlov berish/kesish paytida ajralib chiqadigan chang nafas olganda yoki ko'zga tushganda ta'sir ko'rsatishi mumkin.	
Xususiyatlar bilan bog'liq Fizik, kimyoviy va toksikologik simptomlar:	
Ko'zga tegishi:	Chang ko'zni yengil achishtirishi mumkin.
Teriga tegishi:	Teriga unchalik qattiq ta'sir ko'rsatmaydi.
Nafas olish:	Nafas olganda unchalik qattiq ta'sir ko'rsatmaydi.
Ichga yutish:	Iloji yo'q - ichga yutish ehtimoli juda kam.
Kechikkan va tez oqibatlari, shuningdek, qisqa va uzoq ta'sir ko'rsatuvchi surunkali oqibatlari:	Ko'p tegsa, terini quritib qo'yishi mumkin.
Amaliy kuzatish:	
Chang ko'zni yengil achishtirishi mumkin.	
Boshqa ma'lumotlar:	
Bizdagi bilim va tajribaga ko'ra mahsulotdan tavsiyalarga muvofiq va to'g'ri foydalanganda odam sog'lig'iga biror-bir xavfli ta'siri kuzatilmaydi.	



MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006–son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830–son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

12-bo'lim Ekologik ma'lumot

12.1. Toksiklik

Ushbu mahsulot ekologik xavfsiz hisoblanadi.

12.2. O'simlik qoplamida barqarorligi va kimyoviy yoki biologik buzilish qobiliyati

Asosiy tarkibiy qismlari biologik jihatdan buzilmaydi yoki sekin buziladi.

12.3. Bioakkumulyatsiya qobiliyati:

Qo'llab bo'lmaydi.

12.4. Tuproqda harakatchanligi

Ushbu mahsulot harakatchan emas. Asosiy ingrediyentning (gips) suvda eruvchanligi past.

12.5. PBT va vPvB baholash natijalari

Bu mahsulot va uning tarkibiy qismlari PBT va vPvB mezonlariga to'g'ri kelmaydi.

12.6. Boshqa noxush oqibatlari

Ma'lumot yo'q

13-bo'lim Chiqindilarni utilizatsiya qilish va ko'mish

13.1 Chiqindilarni qayta ishlash usullari

Mahsulot chiqindilarini va bo'shagan qadoq'ini xavfsiz yo'l bilan mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq utilizatsiya qilish kerak.

Quyida keltirilgan ma'lumot mahsulot yetkazib berilgan holatiga yoki qurilishda ishlatilgan mahsulotga tegishli bo'lib, qurilish chiqindilari tarkibiga kiradi va buzish sinfi 170904.

Bu mahsulotdan boshqacha foydalanish, masalan, boshqa materiallar bilan aralashtirish chiqindilar tasnifiga va tegishli utilizatsiya qilish usuliga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Chiqindilar tasnifi

Mahsulot:

Guruhlar: 1708 Gips asosidagi qurilish materiallari; 1709 Boshqa qurilish va buzish chiqindilari. Sinflar: 170802 gips asosli qurilish materiallari, 170801 pozitsiyada ko'rsatilganidan tashqari; 170904 qurilish va buzishning aralash chiqindilari, 170901, 170902 va 170903 tovar pozitsiyalarda ko'rsatilganidan tashqari.

Guruh: 15 01 Qadoq (maishiy qadoqning alohida yig'iladigan chiqindilari ham qo'shiladi).

Sinflar: 150103 Yog'och idish; 150106 Aralash qadoq.

Qadoqlanishi:

14-bo'lim Tashish bo'yicha ma'lumot

14.1. UN raqami

Tasniflanmagan.

14.2. BMT bo'yicha yuklashdagi aniq nomi:

Tasniflanmagan.

14.3. Transport xavfsizligi sinf(lar)i:

Tasniflanmagan.

14.4. Qadoqlash guruhi

Tasniflanmagan.

14.5. Ekologik xavflar

Sezilmaydi.

14.6. Foydalanuvchi uchun alohida ehtiyotkorlik choralari:

Shart emas

MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI

1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

14.7. Kemalardan suvning ifloslanishini oldini olish bo'yicha Xalqaro konvensiyaning II-Ilovasiga hamda xavfli kimyoviy yuklarni suyuq holda tashish bo'yicha Xalqaro kodeksga muvofiq o'ramasdan tashish

Qo'llab bo'lmaydi.

Boshqa ma'lumotlar:

Xalqaro yuk tashish qoidalariga ko'ra xavfsiz yuk

15-bo'lim Normativ ma'lumotlar

15.1 Moddalar va aralashmalar uchun mo'ljallangan xavfsizlik, sog'liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar/qonunlar majmui

Yevropa parlamenti va Kengashi (REACH) Reglamenti (YI) № 1907/2006

Yevropa Parlamenti va Kimyoviy moddalarni ro'yxatga olish, baholash, ruxsat berish va cheklash bo'yicha Kengashning (REACH) 1907/2006-sonli Reglamentiga (Yel) o'zgartirishlar kiritish bo'yicha 2015-yil 28-maydagi Komissiya Reglamenti (Yel) 2015/830

Moddalar va aralashmalarni tasniflash, tamg'lash va qadoqlash, 67/548/EEC va 1999/45/EC direktivalarini o'zgartirish va bekor qilish to'g'risidagi Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008-yil 16-dekabrda 1272/2008-sonli Reglamenti.

(Yel) 1907/2006-son Texnik va ilmiy taraqqiyotga moslashtirish maqsadida Yevropa Parlamenti hamda moddalar va aralashmalarni tasniflash, tamg'lash va qadoqlash bo'yicha Kengashning 1272/2008-sonli reglamentiga o'zgartirishlar kirituvchi Komissiyaning (Yel) 2013-yil 8-maydagi 487/2013-sonli Reglamenti

Texnik va ilmiy taraqqiyotga moslashtirish maqsadida Yevropa Parlamenti hamda moddalar va aralashmalarni tasniflash, tamg'lash va qadoqlash bo'yicha Kengashning 1272/2008-sonli reglamentiga o'zgartirishlar kirituvchi Komissiyaning (YI) 2013-yil 2-oktyabrda 944/2013-sonli Reglamentiga

GOST 12.1 005-88-"Ish zonasi havosiga umumiy sanitar-gigiyenik talablar".

O'zR sanitar qoida va normalari № 0128-02 O'zbekiston Respublikasi sharoitida zaharli sanoat chiqindilarini gigiyenik tasniflagich

O'zbekiston Respublikasining 05.04.2002-sanadagi "Chiqindilar to'g'risidagi" 362-II-sonli qonuni

O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-sanadagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi" 839-XII-sonli qonuni

15.2 Kimyoviy xavfsizlikni baholash

Mahsulotning asosiy tarkibiy qismi (kalsiy sulfat) baholandi. To'liq ma'lumot ECHA bazasida mavjud.

16-bo'lim Boshqa ma'lumotlar

Qisqartmalar:

PBT- Barqaror bioakkumulyativ toksik (modda) vPvB-O'ta barqaror bioakkumulyativ (modda)

MAK - Ish joyi havosidagi ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiya

1272/2008-sonli Reglamentga (Yel) muvofiq aralashmalarning tasnifi va tasnifini olish tartibi:

Tasnif: Tasniflanmagan.

Tasniflash tartibi: Hisoblash usuli

Sahifa:9/ 10



MAHSULOTNING XAVFSIZLIK PASPORTI		
1907/2006-son nizomga (Yel), II ilovaga va 2015/830-son nizomga (Yel) mos keladi		
Mahsulot identifikatori:	DFH2 turidagi GQP (nam va olovga chidamli)	
Tahrir:	1.0	Sana: 2024-01-12

Asosiy ma'lumot manbalari:
Xom ashyo yetkazib beruvchining xavfsizlik pasporti.
Xavfsizlik pasporti tahririyati haqida ma'lumot:
Dolzarb emas - yangi muammo.

Xavfsizlik pasporti beruvchi kompaniya:
Ushbu xavfsizlik pasportini "KNAUF GIPS BUXORO" MChJ XK tayyorlagan
Savollar uchun: Shakhnoz.Gulamova@knauf.com

Javobgarlikni rad etish:
Ushbu xavfsizlik pasportida keltirilgan ma'lumotlar ishlab chiqaruvchining ma'lumotlariga asoslanadi va to'g'ri hisoblanadi, lekin hamma narsani qamrab olish uchun mo'ljallanmagan va faqat qo'llanma sifatida ishlatilishi kerak.
Ish beruvchilar ushbu ma'lumotlardan faqat o'zlari to'plagan boshqa ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida foydalanishi hamda ushbu ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash va xodimlarning sog'lig'i hamda xavfsizligini himoya qilish uchun bu ma'lumotlarning yaroqliligi to'g'risida mustaqil qaror qabul qilishi kerak. Ushbu ma'lumot kafolatsiz taqdim etiladi va mahsulotdan ushbu materiallar xavfsizligi Pasporti ma'lumotlariga muvofiq bo'lmagan holda yoki boshqa mahsulot yo jarayon bilan birgalikda foydalanilishiga foydalanuvchi javobgardir.
Ushbu hujjat mazmunini o'zgartirish va uni boshqa preparatlar bilan bog'lash taqiqlanadi.
Matn mazmunini o'zgartirmasdan nusxa olishga ruxsat beriladi.